

## AFG'ONISTONDA INSON HUQUQLARI: XALQARO TASHKILOTLAR VA ULARNING ROLI

Istamova Dilnura Zafar qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Xalqaro jurnalistika fakulteti,*

*Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

*Tel:+998504550304, [dilnuraistamova9@gmail.com](mailto:dilnuraistamova9@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Afg'onistonda inson huquqlarining ta'minlanganlik darajasi va shakllanishi hamda xalqaro tashkilotlarning bu sohadagi roli tahlil qilingan. 2021-yilda hukumat tepasiga toliblar kelishi bilan fuqarolarning huquqlari ham ularning boshqaruv tizimiga moslashtirilgan ya'ni ayollar va qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarining cheklanishi, fuqarolik jamiyatida erkinlikning yo'qligi va shu kabi bir nechta ta'qiqalar qo'yilgan. Bunday cheklovlarni kamaytirishga xalqaro tashkilotlar ham harakat qilmoqda va mamlakat aholisiga ko'plab gumanitar yordamlar yubormoqda lekin siyosiy cheklovlar ham mavjudligi tufayli, ularning samaradorligi pasaymoqda.*

**Kalit so'zlar:** *BMT, UNAMA, intervensiya, repressiya, Amnesty international, integratsiya*

**Annotation:** *This article analyzes the level and development of human rights in Afghanistan and the role of international organizations in this area. With the Taliban coming to power in 2021, citizens' rights have also been adapted to their system of governance, including restrictions on women and girls' access to education, lack of freedom in civil society, and a number of similar restrictions. International organizations are also trying to reduce such restrictions and are sending a lot of humanitarian aid to the country's population, but due to the existence of political restrictions, their effectiveness is decreasing.*

**Key words:** *UN, UNAMA, intervention, repression, Amnesty International, integration*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется уровень и развитие прав человека в Афганистане, а также роль международных организаций в этой сфере. С приходом к власти движения «Талибан» в 2021 году права граждан также были адаптированы к системе управления, включая ограничения доступа женщин и девочек к образованию, отсутствие свободы в гражданском обществе и ряд других подобных ограничений. Международные организации также пытаются снизить эти ограничения и направляют населению страны значительный объём гуманитарной помощи, однако из-за политических ограничений эффективность их деятельности снижается.*

**Ключевые слова:** *ООН, МООНСА, вмешательство, репрессии, Amnesty International, интеграция*

## KIRISH

Afg'onistonning hozirgi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy hayotida inson huquqlarining ta'minlanishi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 2021-yilda hokimiyatga toliblar kelganidan so'ng vaziyat yanada murakkablashdi. Bu davrda ular ko'proq pragmatik siyosat yuritishga harakat qilishmoqda lekin ayollar va qizlarning huquqlarining poymol qilinishi, ta'lim olishning cheklanishi, iqtisodiy inqiroz asosiy muammolar bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, har bir davlat uchun inson huquqlarining ta'minlanishi muhim masala hisoblanadi chunki, bu bilan ichki barqarorlik ta'minlanadi va davlat taraqqiyoti uchun sezilarli ahamiyat kasb etadi.

2001-2021-yillar oralig'ida Afg'oniston davlatida ham o'ziga yarasha qonunlar o'rnatilgan, xotin-qizlarning ham ta'lim olish imkoniyatlari ham bo'lgan va ular parlamentda ham faoliyat yuritishgan. Islom Amirligi davrida esa bularning barchasi bekor qilingan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

1979-1989- yillar afg'on xalqi uchun juda og'ir yillar bo'ldi chunki bu davr Sovet intervensiyasi davri edi. Sovet qo'shinlari kiritilishi natijasida Afg'onistonda inson huquqlari keskin buzildi ya'ni fuqarolarning ommaviy qirg'inlari, siyosiy huquqlarning buzilishi, qishloqlarning vayron qilinishi va majburiy deportatsiyalar kuzatildi. Davlatni sovet qo'shinlari tark etganidan so'ng ham davlatda siyosiy tarqoqlik mavjud edi.

1996-yilda Afg'oniston Islom Amirligiga aylantirilganidan so'ng ham inson huquqlariga uning qadriga bo'lgan munosabat o'zgarmadi. Ayniqsa, gender tengsizlik avj oldi, qizlarning 6-sinfdan keyin maktabda o'qishlari taqiqlandi, ayollarning jamoat joylarida yurishi hamda davlat ishlarida faoliyat yuritishlariga ham cheklov qo'yildi. Davlatni har sohada rivojlanishiga yordam beruvchi omil bu inson huquqlariga bo'lgan e'tibor bo'lsa, bu davrda Afg'onistonda inson huquqlari buzilgan edi.

2001-yilda AQShning kirishi natijasida yangi siyosiy tizim shakllandi. Bu vaqtda inson huquqlarining ta'minlanishiga e'tibor qaratildi. 2004-yilda konstitutsiya inson huquqlarini kafolatlovchi hujjat sifatida qabul qilindi.<sup>21</sup> Ayollar parlamentga va boshqa davlat korxonalariga ishga qaytdi, qizlarning 40% dan ko'pi maktabga qatnay boshladi. Shu tariqa, Afg'onistonda inson huquqlari tiklana boshladi. Matbuot erkinligi, fuqarolik jamiyati va nodavlat tashkilotlat faoliyati rivojlandi biroq, korrupsiya, xavfsizlik muammolari va qabila tuzumining ta'siri inson huquqlarini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qildi.<sup>22</sup> Mana shu davrda Afg'onistonda ayollar ko'p sohalarda o'zlarini namoyon qildilar. Roya Rahmoniy Afg'onistonning AQShdagi birinchi ayol elchisi sifatida ham faoliyat yuritdi

2020-yil sentabr oyida Afg'oniston birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar holati bo'yicha komissiyasida o'rin oldi, bu „bir paytlar ayollarga zulm bilan mashhur bo'lgan mamlakat uchun taraqqiyot belgisi“ sifatida erishilgan yutuq edi.<sup>23</sup>

<sup>21</sup> The Constitution of Afghanistan (2004). Kabul.

<sup>22</sup> Joya, M. (2009). A Woman Among Warlords. Scribner.

<sup>23</sup> . Saif, Shadi Khan. "Afghanistan's first female U.N. envoy warns over women's rights". 24 September 2020  
Url: <https://www.reuters.com>.

Mana shu davrda ayollar ko'pgina sohalarda muvaffaqiyatga erishdi va davlat rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shdi.

2021-yildan keying davr afg'on xalqi uchun inqirozli davr bo'ldi chunki yana Tolibon hukumati davlat boshqaruvini o'z qo'liga oldi. Islom Respublikasidan oldingi holatlar yana takrorlana boshladi. Tolibon hokimiyatga qaytishi ortidan inson huquqlari keskin cheklab qo'yildi. Qizlar maktab va oliy ta'lim muassasalaridan chetlashtirildi, ayollarning mehnat huquqi toraytirildi, OAV ustidan senzura kuchaydi.<sup>24</sup> Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan qattiq tanqid qilinib, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari va inson huquqlari bo'yicha hisobotlarda o'z aksini topdi.

Ko'plab xalqaro tashkilotlar hamda Afg'onistonga qo'shni davlatlar mavjud vaziyatni yumshatishga harakat qilmoqda lekin ular islom niqobi ostida cheklovlarni yanada kuchaytirmoqda. Ko'plab tashkilotlar va ularning bo'limlari aynan, afg'on xalqining huquqlarini ta'minlash va ularning erkin yashashlari uchun kurashmoqda.

Inson huquqlari monitoringi va xalqaro hisobotlar tayyorlashda asosiy manbalardan biri hisoblangan UNAMA doimiy ravishda afg'on ayollari huquqlari, matbuot erkinligi bo'yicha hisobotlar e'lon qiladi.

BMT sessiyalarida ham Afg'oniston haqida alohida so'z yuritiladi va O'zbekiston prezidenti ham o'z nutqida afg'on xalqi uchun manfaatli bo'lgan takliflarni berib kelmoqda. Bundan tashqari, Amnesty International tashkiloti ham siyosiy repressiyalar va inson erkinliklarini himoya qilishda faol hisoblanadi.

Afg'onsitonda inson huquqlarining ta'minlanishi bo'yicha AQSh davlati ham asosiy donor davlat hisoblanadi va Tolibonga siyosiy bosim, inson huquqlarining buzilishi bo'yicha choralar ko'radi.

## **XULOSA**

Bu davlat o'zining murakkabligi va yopiqligi bilan dunyo hamjamiyatining e'tiborini tortmoqda. Afg'onistonda inson huquqlari masalasi tarixiy, diniy, siyosiy va iqtisodiy omillar natijasida inqirozga yuz tutib kelmoqda. Ma'lum bir davrlar ichida ahvol ancha ijobiy tarafga o'zgardi lekin toliblar hokimiyatga kelishi bilan fuqarolarning huquqlari buzildi.

Inson huquqlari buzilishining oldini olishda xalqaro tashkilotlarning ahamiyati katta. Inson huquqlari bo'yicha barqarorlikni ta'minlash uchun xalqaro huquqiy bosim, mintaqaviy hamkorlik va ichki ijtimoiy kelishuv zarur.

Afg'oniston uchun inson huquqlarini ta'minlash masalasi oddiy huquqiy muammo emas, balki milliy davlatchilikning mustahkamlanishi, jamiyatning demokratik rivoji va xalqaro hamjamiyat bilan konstruktiv integratsiyasining poydevori hisoblanadi. Shu sababli, uzoq muddatli barqarorlik va taraqqiyot faqatgina huquqiy normalarni qabul qilish emas, balki ularni amalda qo'llash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali ro'yobga chiqishi mumkin. Shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha olib borilayotgan tashqi bosim va xalqaro mexanizmlar faqatgina ichki ijtimoiy

<sup>24</sup> Human Rights Watch. (2024). World Report 2024: Afghanistan Chapter. New York: HRW.

kelishuv, madaniy-diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan taqdiridagina samarali bo'lishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.The Constitution of Afghanistan (2004). Kabul.
- 2.Joya, M. (2009). A Woman Among Warlords. Scribner.
- 3.Saif, Shadi Khan. "Afganistan's first female U.N. envoy warns over women's rights". 24 September 2020 Url: <https://www.reuters.com>.
4. Human Rights Watch. (2024). World Report 2024: Afghanistan Chapter. New York: HRW.